



**29,30,31-may kunlari
Namangan shahrida
o'tkazilgan "Yoshlar festivali"
doirasida Namangan davlat
universitetida tashkil etilgan**

"YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YOSHLARNING O'RNINI"

**mavzusidagi onlayn
ilmiy anjumani**

NAMANGAN-2021

“Yangilanayotgan O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o‘rni” mavzusidagi masofaviy ilmiy anjuman materiallari to‘plami / Bosh muharrir: S.T.Turg‘unov. – Namangan, 2021. – B. 572.

Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori, Pedagogika fanlari doktori, professor S.T. Turg‘unov

Mas‘ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, kimyo fanlari nomzodi, dotsent M.R.Qodirxonov

Mas‘ul muharrir o‘rinbosari: Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i J.Yuldashev

TAHRIR HAY‘ATI

Fizika-matematika fanlari – *f-m.f.d., dots.* B.Samatov, *f-m.f.d.* R.Xakimov

Kimyo fanlari – *k.f.d., prof.* Sh.Abdullayev, *PhD.* Xolmatov

Biologiya fanlari – *b.f.d.* A.Batashov, *b.f.d.* G‘.Abdullayev

Texnika fanlari – *t.f.d., prof.* S.Yunusov, *t.f.n., dots.* T.Saypiyev

Qishloq xo‘jaligi fanlari – *g.f.d., dots.* B.Kamalov, *q-x.f.n., dots.* A.Qazaqov

Tarix fanlari – *t.f.d., prof.* A.Rasulov, *t.f.n., dots.* Z.Madrahimov

Iqtisodiyot fanlari – *i.f.d., prof.* N.Maxmudov, *i.f.n., dots.* K.Sirojiddinov

Falsafa fanlari – *PhD* R.Zamilova, *f.f.n.,* O.Mamatov

Filologiya fanlari – *f.f.d., prof.* N.Uluqov, *f.f.d., dots.* H.Usmanova

Geografiya fanlari – *g.f.d., dots.* B.Kamalov, *g.f.n., dots.* E.Soliyev

Pedagogika fanlari – *p.f.d., dots.* O‘.Asqarov, *p.f.n., dots.* M.Nishonov

Tibbiyot fanlari – *b.f.d.* G‘.Abdullayev, *tib.f.n., dots.* S.Boltaboyev

Psixologiya fanlari – *p.f.d., prof.* Z.Nishanova, *p.f.n., dots.* M.Maxsudova

Texnik muharrir: R. Akbarov

Tahririyat manzili:

Namangan shahar Uychi ko‘chasi, 316-uy

Tel:(0369)227-01-44, 227-06-12

Faks:(0369)227-07-61

E-mail: iqtidorli@namdu.uz

“Yangilanayotgan O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o‘rni” mavzusidagi masofaviy ilmiy anjuman NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10.06.2021-yildagi kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 06). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma‘lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi



Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, so‘nggi tayyorgarlik, ya’ni yakunlovchi mashg‘ulot imkoni boricha sahnada yoki konsert o‘tkaziladigan binoda o‘tkazilgani ma’qul. Bu holat o‘quvchilarning ruhiyatiga, muhit-joyga ko‘nikishlariga hamda ijro sifatining ta’sirchan chiqishiga katta yordam beradi.

Milliy xalq cholg‘u asboblari dastasi jamoasining mas’uliyatli ishlarida yana biri tayyorlangan musiqa asarlarini konsertda namoyish etish bo‘lib, bu ijrochilar uchun ham, tomoshabinlar uchun ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ansamblning o‘quv-ijodiy va tarbiyaviy sohada bajargan ishining sifatini aynan ana shu chiqish ko‘rsatadi. Shuni hisobga olib konsertning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun bir qator tashkiliy masalalarni ham ko‘rib chiqish kerak. Buning uchun oldindan e’lonlar (afishalar), dastur (programma) va kiyimlar tayyorlash, sahna ishlari uchun mas’uliyatli shaxslarni tayinlab qo‘yish kerak. Konsert zalida to‘garak a’zolaridan navbatchilar tayinlanishini ham esdan chiqarmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov I. A. Musiqa lug‘ati. -Toshkent - 1997.
2. Bahriev A. R. O‘zbek musiqa tarixi (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). -Buxoro - 2005.
3. Jabborov I. O‘zbeklar turmush tarzi va madaniyati. -Toshkent - 2003.
4. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. -Toshkent - 1996.
5. Ibrohimov O. A., Xudoyev G. M. . Musiqa tarixi – o‘quv qo‘llanma. -T.: “Barkamol fayz media”, 2018.

O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI IJROCHILIGIDA AN’ANAVIY XONANDALIK YO‘NALISHINING KELIB CHIQUISH TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHARI

UMUROVA MA’RIFAT YOSHIYEVNA

Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti
Musiqa ta’limi kafedrasida o‘qituvchisi
marifat_umurova@mail.ru

RAXIMOV ABDURASUL RAVSHAN O‘G‘LI

Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti
Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi
abdurasulraximov18@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa san’atida an’anaviy xonandalik yo‘nalishi, “hofiz” tushunchasi tarixi haqida fikr yuritilgan. O‘zbek an’anaviy xonandalik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, ovoz, sozandalik, jo‘r bo‘lish mahorati, badihago‘ylik, to‘g‘ri talaffuz, mumtoz she’riyat bilan hamohanglik kabi tushunchalar keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *An’anaviy xonandalik, maqom, vokal, hofiz, fal’set, mumtoz adabiyot, diapazon, registr, cholg‘u ijrochiligi.*

O‘zbek musiqa san’ati ijrochiligida xonandalik ustozdan-shogirdga an’ana asosida o‘tib, shaklanib, rivojlanib, turli sharoitlarga moslashgan holda bizgacha yetib kelmoqda. Xalq



ijodiyotidagi folklor ayimlari, og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa - maqomlar, vokal va zamonaviy musiqa ijrochiligida xonandalik asosiy o‘rinda turadi. Ular orasida tarixiy tajribalar asosida shakllangan va eng mukammal an‘analarni o‘zida mujassam etgan an‘anaviy xonandalik yo‘nalishi o‘zining ijrochilik uslubi, shakl va xalqchilligi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Mazkur yo‘nalish azal-azaldan, o‘zbek xalqining eng go‘zal urf-odatlarini, an‘ana, qadriyat va milliy ruhiyatini yuzaga chiqarib, xalqimizning boy ma‘naviyatini dunyo xalqlari oldida aslligi va o‘ziga xosligini ko‘rsatib kelmoqda. Shu bois ham xonandalik an‘anasi va uning ayim yo‘nalishlari, uslublari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. An‘anaviy ashula ijrochiligi san‘ati aholi orasida keng ommalashdi. Ayniqsa, ularning janr jihatidan keng qamrovliligi, ijro uslublarning kengligi, joy va makon an‘analarining o‘ziga xos mahalliy uslublari namayon bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, natijada shaxsiy hamda mahalliy unsurlar bilan xarakterlanuvchi ijro uslublari, keyinchalik ijro maktablari yuzaga keldi. Andijon, Xorazm, Marg‘ilon, Qo‘qon xofizlik maktablari yoki Xamroqul Qori, Xojixon Boltayev, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mamatbuva Sattorov, Juraxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov kabi shaxsiy ijro uslublari yuzaga keldi.

Xonandalik san‘atida bilim hamda amaliy unsurlar alohida o‘rin egallaydi. Shunday unsurlardan biri va birlamchi jarayon bu - ovozdir. Shuningdek, ijro mahorati, so‘z talaffuzi, kuy, ohang va ijodiy jarayon mutanosibligi bo‘lib, mutaxassislar mazkur jarayonni azal-azaldan ijrochilik amaliyotida katta ahamiyat kasb etib kelayotganligini e‘tiborga olib, quyidagi bo‘limlarga ajratgan holda o‘rgangan. Jumladan:

- ijrochilik san‘ati;
- ovoz imkoniyatlari va talqini bilan bog‘liq qonuniyatlar;
- matn hamda talaffuz masalalari;
- so‘z va oxang;
- ijro madaniyati;

Xonandalik amalining zamirida mavjud bo‘lgan ana shu o‘ziga xos bosqichlar tom ma‘noda o‘ziga xos darajalarni yuzaga keltirganki, ular xalk orasida qo‘shiqchi, laparchi, yallachi, dostonchi, termachi, ashulachi, talqinchi, savtxon, nasrxon, zikir, jahrchi, go‘yandachi, ayimchi, xonanda va nihoyat hofiz kabi nomlar bilan atalishga olib kelingan. Bular esa o‘z o‘rnida xonandalik san‘atining turlari sifatida amaliyotda shakllangan. Ijrochilarning har biri har tomonlama mukammal hisoblanib, eng yuqori darajasigacha erishishga muvassar bo‘lganini esa “Hofiz” deb yuritish an‘anaga aylangan. Chunonchi, hofiz keng qamrovli hamda ijrochilik mahoratining yuqori bosqichiga erishgan mutaxassisga berilgan darajadir.

Musiqa san‘ati ijrochiligida ovoz, cholg‘uning bir-biriga hamohangligi o‘ta muhimdir. Bevosita ayim jarayoni ijrochi tomonidan yakka, juft, guruhli yoki ommaviy tarkibda amalga oshiriladi. O‘zbek musiqasining ohanglari, eng muhimi, ruhiyati, ayniqsa hofizlikda o‘z aksini topgan. Xonandalikda yuqori saviyaga erishib mumtozlik kasb etganlarni, ya‘ni mumtoz musiqa namunalarini ijro etuvchi ayim sohiblarini “ashulachi”, “maqomchi” nomlari bilan birga, XIX asrning 30-yillaridan boshlab “hofiz” deb atash tilimizda allaqachon rasm bo‘lib ulgurdi.

Yuqorida keltirilgan har bir atamada musiqiy janr xususiyati to‘la ifodasini topadigan bo‘lsa, “hofiz” ham bu o‘rinda qator tarkibiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘zining ayrim jihatlarni namayon etgan. “Hofiz” - arabcha “xifz” so‘zidan olingan bo‘lib, aslida “asrovchi”,



“yodda saqlovchi” ma’nolarini anglatadi. SHu bois bo’lsa kerak o‘tmishda, ijro talqini bilan bog’lik kasb egalari hamda amallarida xifz, ya’ni esda saqlash muhim hisoblangan va talqin etish jihatlarini o’zida mujassam etganlari bu nom bilan atalib kelingan.

XX asrning 30 yillariga kelib mumtoz musiqa merosi va xalq yo’llariga mansub yirik shakldagi ashula ijrochilari - mohir xonanda va mashhur ashulachilarni hofiz deb yuritish rasman keng ommalashdi. Xukumat tomonidan ham 1939 yili “Xalq hofizi” deb nomlangan faxriy unvon ta’sis etildi.

Musiqa san’ati qadimiy o’zining shakllanishi jarayonidan hozirgi davrimizgacha insoniyatning ijtimoiy hayoti bilan bog’liq holda rivojlanib kelgan. Turli shart-sharoitlarga asoslangan musiqiy namunalar ijod etilgan, o’zining ravnaqi yo’lida yirik-yirik asarlar vujudga kelishiga zamin yaratgan. Hayot manbai bo’lmish ijod, uning tizimida tarkib topgan ijodiyot o’tmish allomalari tomonidan ma’lum darajada yoritilgan. Musiqiy merosimizning mukammal va murakkab jihatlarini, boy imkoniyatlari musiqa san’atining insoniyat hayotida qanchalik ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Odatda “ijrochilik” musiqiy namuna talqini bilan bog’liq bir qator ichki xususiyatlarni o’zida mujassam etgan va bu jihatlar ijrochilik mezonlari sifatida amaliyotda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. *Iste’dod, bilim, har tomonlama mukammal ovoz, sozandalik, jo’r bo’lish mahorati, badihago’ylik mahorati, saboq, ijodiy yondashish, to’g’ri so’z talaffuzi, izlanish va doimiy mashq* kabi xususiyatlar shular jumlasidandir. Musiqa ijrochiligi amaliyotida ana shunday xususiyatlarga imkon darajada ko’proq ega bo’lgan san’atkorgina mumtoz musiqa namunalarini mukammal talqin etishga qodir bo’ladi.

Sozandalik - musiqa ijrochiligining ajralmas qismlaridan biridir. Odatda, sozanda ijrochi va birinchi tinglovchidir. Ya’ni, o’z ijrosini baholovchisi va unga ma’qul bo’lgandagina muxlisga taqdim etadi. Demak, u o’z ijrosini ilk tinglovchisidir. Sozanda o’z mahoratini cholg’u talqinida tarannum etib, xonish jarayoniga ma’lum darajada ta’sir etadi. U qanchalik mahorat bilan musiqiy asarni mukammal ifoda etilishiga ta’sir ko’rsatsa va shunga xos tarzda xonishni boyita olsa, shunchalik jo’r bo’lish mahorati sirlariga ega bo’lgan bo’ladi. Zero, jo’r bo’lish ham sozandadan muayyan iste’dod talab etadi. Uning asosiy xususiyatlari ziyraklik, sezgirlik, badixa, oqilona talqin va doimiy nazorat kabi jihatlarda namoyon bo’ladi.

O’zbek an’anaviy xonandalik san’ati amaliyotida juda ko’p ovoz turlari uchraydi. Mutaxassis xonandalar tomonidan ular o’z xususiyat va sifatlaridan kelib chiqib nomlanib kelingan. Masalan: “Tik ovoz”, “Dovudiy ovoz”, “Kuchli ovoz”, “Xasta ovoz”, “Dardli ovoz”, “Manqa ovoz”, “G’alati ovoz”, “Baqiroq ovoz”, “Mungli ovoz”, “Qo’ng’iroq ovoz”, “Yoqimli ovoz” va h.k. Xonandaning ovozi faqat ularning eshutilishi bilan emas, balki ijro diapazoni, ovozning ohangdorligi, talafuzning to’g’riligi bilan ham xarakterlanadi. Ovozlarining balandligi nuqtai nazardan past va yuqori registrlarga bo’lish mumkin. Odatda, registr tushunchasi ovoz diapozonining bir qismini tashkil etadi.

Musiqiy ovozlarni ishlatish texnikasiga ko’ra tadqiqotchi olimlar 3 turga ajratadi. Ya’ni, “Binnigi” (dimoq), “Guligi” (tomoq) va “Ishkami” (qorin) va har bir usulga alohida ilmiy-nazariy ta’rif berib o’tgan. Ma’lumki, xonandalikda aytim yo’li (usuli) ovoz, nafas va ovoz chiqarish apparatlarining bir-biriga uzviy bog’liqligida hamda to’g’ri ishlatish natijasida yuzaga keladi.

Binnigi - ijro sun’iy usul bo’lib, ovozlarning qo’shilib ketishi va asosan dimog’da sadolantirishdir.

Guligi - O‘zbekistonning barcha vohalarida keng tarqalgan bo’lib, ijro jarayonida



xonandaning tomog‘iga kuch berib, qiyinchilik bilan talqin etishi, so‘zlarni noaniq ifoda etishi, ovozni kuchaytirishi, bezashi kabi sun‘iy usullardan foydalanishidir.

Ishkami - O‘rta Osiyo xalqlari orasida eng yoqimli va sifatli ijrodir. Bu toifa ijrochilar chuqur nafas, kuchli tembr, keng diapozon mobaynida yangroq, tushunarli va yengil sadoli ovozdır.

O‘zbek an‘anaviy xonandalik san‘atidagi ovoz talqin etish texnikasi 3 usuldan tashqari katta ashulachilar va maqom ijrochilari amaliyotida ko‘p uchraydigan ovozni jag‘ orasiga olish usuli, ya‘ni sun‘iy ovoz hosil qilish musiqa nazariyasi fanida “fal’tset” ovoz deb ataladi. Ana shu sun‘iy ovozni qo‘llash ham mavjud. Qayd etish joizki, fal’tset ovoz talqini o‘zbek xonandalari tomonidan ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir.

Mumtoz musiqa ijrochiligi bir qator an‘anaviy sifatlarga ega. Talqin jarayonida ovozni baland-past, bo‘rttirib, erkalatib, kuch bilan yoki umuman bo‘sh yurg‘izish, usulining bir tartibga solib talqin etilish kabi jarayonlar kechishi muqarrar. Oddiy so‘z bilan buni dinamik rivoj deyish mumkin. Fal’tset usuliga ijrochi asarning dinamik rivojini ta‘minlashda, uning ma‘lum nuqtalari, jumllarida murojaat etadi. Odatga ko‘ra, bu uslub asarning daromad, peshdaromad, miyonxat, dunasr, avj, katta avj kabi tarkibiy qismlarida uchraydi. Ashulaning sustlashgan, past ovoz talab etuvchi bo‘laklari shu usulda ijro etilib kelingan.

O‘zbekiston vohalari ashulachilik san‘atining o‘ziga xoslik tomonlari ko‘p, ularning har biri o‘zgacha dunyodir. Fal’tset usulini mumtoz xonandalik bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishlarini ko‘proq Farg‘ona-Toshkent ijrochiligida (ashula va katta ashula), ayniqsa Xorazm vohasi namoyandalari Komiljon Otaniyozov, Ro‘zimat Jumaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Rahmatjon Qurbonov kabilar ijrosidagi talqinlarda kuzatish mumkin.

An‘anaviy xonandalik san‘atida asarning so‘z matni va unga bo‘lgan e‘tibor alohida ahamiyatga egadir. Avval ijroning mukammal talqini, aynan asar matni hamda ijrochi munosabatining darajasiga bog‘lik. Mumtoz xonandalikni uch asosidan biri adabiyotning, ya‘ni mumtoz she‘riyatni idroklagan bo‘lishi bilan izohlanadi. Hofizlikda esa, mumtoz adabiyot namunalari g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, she‘r va hokazo badiiy janrlar o‘z ijro yo‘li, talqin usullariga hamda qonun va qoidalariga ega. Bu adabiyotda aruz vazni qoidalari ekanligi barchaga ayondir.

Mumtoz xonandalik san‘atida aytimlar o‘z janri doirasida so‘z- matnlariga ega bo‘lgan. Bular orasida maqomlarning so‘zlari turli xususiyatli g‘azallardan iborat bulgan. Oldinlari diniy va ishqiy mavzularga solib aytilib kelingan maqom namunalari keyinchalik mumtoz shoirlarning dunyoviy, lirik hamda ishqiy g‘azallari bilan aytish rasm buldi. Eng asosiysi matnning ohang ma‘nosi bilan mutanosibligidir. Chunki, xar bir maqom uz tabiatidan kelib chiqib turlicha xarakterlanadi. Ya‘ni, «Buzruk» - ulug‘vorlik, buyuklik maqomi. Zabardastlik va ishonchli katta mahorat ijroda hukm surishi lozim. “Rost” – rostgo‘ylik, to‘g‘rilik maqomi, samimiylilik soflik, to‘g‘rilikka asoslanadi. “Dugoh” - ishq muhabbat maqomi, “Segox” - hijron maqomi, «Navo» - xotirlash, eslash, ko‘ngil nidosi ohanglaridan tuzilgan maqom, «Iroq» - firoq maqomi. Namunalarda ularning xarakterlovchi asl ohanglar mujassam topganki, ijro talqinida unga erishilmasa uni maqom deyishga asos qolmaydi. Shu bois, har bir maqom xususida xonandalarda ma‘lum tushuncha bulishi shart. Bu esa xonanda yutug‘ining yarmi desak adashmaymiz.

Mumtoz xonandalik san‘ati an‘analarida avvaldan Xofiz Sheroziy, Shams Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Fariduddin Attor, Amir Xusrav Dehlaviy, Abduraxmon Jomiy, Fuzuliy, Ansoriy, Bedil, Hiloliy, Sanoiy, Binoiy kabilarning suzlari ko‘p uchrasa, keyingi davrda Alisher



Navoiy, Maxtumquli, Mashrab, Huvaydo, Muqimiy, Furqat, Amiriy, Zebiniso, Nodirabegim, Xaziniy kabi mumtoz she‘riyatimiz namoyondalarining yaratgan ash‘orlari keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bularni idroklash va ular ijodining asosiy mohiyatini tushunib yetish maqom ijrochiligida juda muhim hisoblanadi. Shu bois, xonanda aruz saboklaridan xabardor bulishi maqsadga muvofiqdir.

San‘at - insoniyat ma‘naviyatining ko‘zguvidir. San‘atkor ana shu ko‘zguni yaratuvchisi, asrovchisi, davom ettiruvchisi va kelajagi hisoblanadi. Qaysiki xalq buyukdir uning san‘ati va san‘atkori ham buyuk va beqiyos bo‘ladi. Bu xususda o‘zbek musiqa san‘atining qadimiy va boy, ko‘p qirrali hamda zamon bilan doimo hamnafas rivojlanib kelganligini e‘tirof etish lozim. Boy musiqiy merosni ijodkori hamda ijrochilari esa shunga mos, buyuklikka xos zabardast sozanda va xonandalardir. Ular tarix davomida asralib, avloddan-avlodga avaylanib, sharaflari «hofiz» nomini munosib ardoqlab kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алимбаева К., Ахмедов М. “Народные музыканты Узбекистана” И, -Т.: “Гос.изд.” - 1959.
2. Kaykovus. “Qobusnoma” Т.: “Meros” - 1993.
3. Xudoynazarov M. “Maqom san‘ati ustasi”, Toshkent - 1992.
4. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent - 1963.
5. Begmatov S. “Hofizlik san‘ati” (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) 2007 y.
6. Mirzaeva N. A. “Xonandalik uslubiyoti asoslari” (Ma‘ruzalar matni). Toshkent - 2008. 48 b.
7. Qahharov N. V. “Vokal asoslari” (O‘quv qo‘llanma) Т.: “Iqtisod-moliya” - 2008. 314 b.
8. Umurova M. Y., Nurullaeva N. K. Теория и методика обучения и воспитания (по областям и уровням образования) //Проблемы педагогики. – 2020. – С. 40.
9. Yoshiyena U. M. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100).
10. Yoshiyevna U. M., Ravshan o‘g‘li R. A. Musiqa madaniyati darslarida “vena klassik maktabi” namoyondalari hayoti va ijodiyiy faoliyati bilan tanishtirish uslublari.
11. Umurova Marifat Yoshiyena the importance of using pedagogical technologies in special educational schools // Вестник науки и образования. 2020. №22-2 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-importance-of-using-pedagogical-technologies-in-special-educational-schools> (дата обращения: 21.03.2021).
12. Алаева З. М. Педагогика как наука и искусство воспитания //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).
13. Алаева З. М. Роль национальных инструментов в музыкальном образовании начальных классов //Проблемы науки. – 2021. – С. 66.
14. Мадримов Б. Х., Дустов С. Д. Древнее искусство" Шашмакома" Бухары в системе музыкального образования студентов //Современное музыкальное образование: традиции и инновации. – 2018. – С. 104-106.
15. Мадримов Б. Х. Бухарский шашмаком-феномен в культуре Центральной Азии //Наука, техника и образование. – 2020. – №. 10 (74).



O‘ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA’LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILAYOTGAN YUKSAK E’TIBOR

O‘RMONBOYEVA MUSLIMA BEKMATJON QIZI

Namangan davlat universiteti

Fizika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanishi yoritilgan. Yosh avlod dunyo qarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qoyilgan tabiiy, ijtimoiy, aniq va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.*

Kalit soʻzlar: *Xalq ta'limi, ta'lim infratuzilmalari, maktab, ta'lim tizimi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya*

Abstract: *As a result of consistent, systematic, continuous and purposeful organization of education, his active participation in the process of social relations in different directions and content, as well as self-education formed. In the formation of the worldview of the younger generation, it is important that they thoroughly master the basics of natural, social, exact and humanities, which are taught in educational institutions.*

Keywords: *Public education, educational infrastructure, school, education system, science, education*

Аннотация: *В результате последовательной, планомерной, непрерывной и целенаправленной организации обучения, его активного участия в процессе общественных отношений разного направления и содержания, а также формируется самообразование. В формировании мировоззрения подрастающего поколения важно, чтобы они досконально владели основами естественных, социальных, точных и гуманитарных наук, которые преподаются в учебных заведениях.*

Ключевая слова: *Государственное образование, образовательная инфраструктура, школа, система образования, наука, образование*

Ilmdan oʻzga najot yoʻq va boʻlmaydi ham...

Imom al-Buxoriy

Ayni paytda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga nazar solar ekanmiz oxirgi yillarda mamlakatimizda xalq ta'limi tizimini chuqur isloh qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan o'qituvchi pedagoglarimizga, maktab, kollej, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga, ularni sifatli ta'lim olishlariga qaratilayotgan e'tibor va say-harakatlar tahsinga loyiq.

Shu o'rinda Bosh vazir o'rinbosari B.Musayev, Xalq ta'limi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar rahbarlarining jamiyatda muallimning obro-e'tibori va maqomini ko'tarish, maktab o'quv darsturlari va metodikasini qayta ko'rib chiqish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash uchun shaxsan javobgar ekanliklari ko'rsatib o'tildi.



111	O‘zbek milliy musiqa san’ati ijrochiligida an’anaviy xonandalik yo‘nalishining kelib chiqish tarixi va taraqqiyot bosqichari Umurova M.Y., Raximov A.R.	336
112	O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e’tibor O‘rmonboyeva M.B.	341
113	Oligofren bolalarning psixofiziologik xususiyatlarining o‘ziga xosligi Ismoiljanova S.	344
114	Bolalarning tovush madaniyatini shakllantirish orqali ravon nutqqa o‘rgatish Aminova D.R.	347
115	O‘quvchilarni tarbiyalashda salbiy xususiyatlarni bartaraf etish usullari Дедахонова М.О.	351
116	Бошланғич синф ўқувчиларида креатив салоҳиятни шакллантириш муаммосининг педагогик-психологик адабиётларда ўрганилиши Нуралиева К.И.	353
117	Фарзанд тарбиясида ота-она ролининг ахамияти Хошимова Р.	358
118	Tashqi muhitning alohida sharoitlarida yosh basketbolchilar ish qobiliyatining fiziologik asoslari Mirzayev S., Otamirzayev O.	362
119	Sharq mutafakkirlarining tabiiy fanlarga qo‘shgan hissalar To‘rayev B.B.	365
120	Бўлажак спортчиларнинг маънавияти ва унга таъсир этувчи омиллар Мамажонов Д.А., Холмирзаев Б.Н., Бекмирзаев М.Х.	371
121	Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini oshirishda sog‘lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati Mamatqulov M.H., Hamrayev N.N.	374
122	Yoshlar orasida ruhiy tushkunlik muammolarining yechimi va shukronalik hissini uyg‘otish Sultanova N.R.	376
123	Фанлараро интеграция – график таълим самарадорлигини ошириш омили сифатида Таджибаев А.Б., Мўйдинова Д.М.	378
124	Maktabgacha ta’limda bolalar faoliyatini integral loyihalashning ahamiyati Boltayeva F.A.	381
125	Raising the role of teachers in society Sotvoldiyeva M.X.	384
126	Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholashning nazariy asoslari Abdiraimov Sh.S.	386